

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон  
қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт,  
филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик  
диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия  
этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2022-6/3  
Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2022**

**Бош мұхаррир:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.*

**Бош мұхаррир ўринбосари:**

*Хасанов Шодлик Бекпұлатович, к.ф.н., к.и.х.*

**Тахрир ҳайати:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.  
Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.  
Абдуллаев Равшан Бабажонович, тиб.ф.д., проф.  
Абдухалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.  
Аззамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.  
Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.  
Бабаджанов Хүшият, ф.ф.н., проф.  
Бекчанов Дағрон Жуманазарович, к.ф.д.  
Буриев Ҳасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.  
Ганджаева Лола Атанағазаровна, б.ф.д., проф.  
Давлетов Санжар Ражсабович, тар.ф.д.  
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.  
Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.  
Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.  
Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.  
Кадирова Шахноза Абдухалирова, к.ф.д., проф.  
Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.  
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.  
Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.  
Мирзаев Сироғиддин Зайневич, ф-м.ф.д., проф.  
Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.  
Рахимов Рахим Атажанович, т.ф.д., проф.  
Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.  
Рӯзибоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.*

*Рӯзметов Баҳтияр, и.ф.д., проф.  
Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.  
Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.  
Сапарбаева Гуландам Машариповна,  
ф.ф.ф.д.  
Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.  
Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.  
Сотипов Гойинназар, қ/х.ф.д., проф.  
Тоҷибаев Комилжон Шаробитдинович,  
б.ф.д., академик  
Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.  
Холматов Баҳтиёр Рустамович, б.ф.д.  
Чўпонов Отанағазар Отожсонович, ф.ф.д., доц.  
Шакарбоев Эркин Бердиқулович, б.ф.д.,  
проф.  
Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.  
Эшchanov Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.  
Ўразбоев Fайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.  
Ўрзобоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.  
Ҳажсиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.  
Ҳасанов Шодлик Бекпұлатович, к.ф.н., к.и.х.  
Худайберганова Дурдана Сидиковна, ф.ф.д.,  
проф.*

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№6/3 (90), Хоразм Маъмун академияси, 2022 й. – 209 б. – Босма нашрнинг электрон вариант - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

**МУНДАРИЖА**  
**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<b>Abdujabbarova F.</b> Tog‘ay Murod asarlari tilida qo‘llanilgan metaforalar semantikasi .....	5
<b>Abdirahimova G.</b> Frazeologizmlar tasnifiga doir .....	7
<b>Abdurusalova N.</b> Remark va Nabi Jaloliddin asarlarida urush mavzusi tasviri .....	9
<b>Amirova Z.O.</b> “Heart” va “yurak” konseptlarining kognitiv va lingva-kulturologik xususiyatlari .....	10
<b>Atadjanova S.R.</b> The role of cognitive and lingusitic factors in improving reading comprehension on the base of illustrated texts .....	12
<b>Ashirmatova M.J.</b> Agrar sohasi terminologik tizimining rus tilidagi antonimiysi .....	14
<b>Ashurova Sh.</b> Sodda gap shaklining ikkinchi darajali bo‘lak uyushib kelishiga ko‘ra kengayishi .....	16
<b>Bahodirova G.B.</b> Davlat tilini rivojlantirishda sohaviy leksikaning o‘rni .....	18
<b>Baxranova D.U.</b> Koreys va o‘zbek tillarida ma’no ko‘chish hodisasining o‘xshash va farqli tomonlari .....	20
<b>Baxronova M.A.</b> Edgar Allan Po hikoyalarida ruhiy kasalliliklar .....	23
<b>Baxranova M.R., Yandasheva T.</b> Shavkat Rahmon ijodida “Inson” konseptining ifodalanishi .....	25
<b>Bazarova Sh.Sh.</b> Janubiy Koreya feministik adabiyotining xususiyatlari .....	27
<b>Eshquvvatova G.N.</b> O‘zbek internet matnida janr turlari .....	31
<b>Djalilova D.Z.</b> Ahmad Yassaviy hikmatlarida payg‘ambarlar obrazи .....	35
<b>Gulimmetova S.</b> Abduqayum Yo‘ldoshev qissalarida muhabbat manzaralari .....	37
<b>Hamdamov U.</b> Oybekning simvolistik she’rlari xususida .....	39
<b>Ibodullayev S.R.</b> Til masalalari ning huquqiy taҳdziliga doирайтим муроҳазалар .....	41
<b>Ismoilov M.I.</b> Synthesis of the etosphere and nosphere - a new qualitative stage of morality .....	44
<b>Ismoilova M.Q., Nuftillayev B.U.</b> Comprehensive paradigm of literary text analysis linguistics and adaptation to the learning process .....	46
<b>Khujamberdieva G.</b> Phraseological units with toponymic component in uzbek-english languages .....	48
<b>Maxmudjonzoda Z.D., Maxmidjonov Sh.D.</b> Ideallikdan tubanlikkacha .....	49
<b>Mansurova N.A.</b> Marketing va menejment sohasida qo‘llanadigan o‘zbek tilidagi iqtisodiy terminlarining vujudga kelishi va bosqichlari .....	51
<b>Matnazarov M.M.</b> O‘zbek tilshunosligida toponimika va urbanonimlarning o‘rganilishi .....	53
<b>Mahmudova N.</b> So‘z tarkibidagi morfemalarning sintaktik aloqalari .....	56
<b>Mirjalilova M.J.</b> Tabiat hodisalari komponentiga ega frazeologik birliliklarning stilistik xususiyatlari .....	57
<b>Nabiyeva I.M.</b> Alber Kamyu va Isajon Sulton asarlarida ijtimoiy hayot va inson konsepsiysi .....	59
<b>Olimova D.Z.</b> About the mechanisms that provide understanding of the original text while speaking text in target language .....	61
<b>Otamuratova M.</b> Xosiyat Rustamova – ko‘ngli osmonlarga intiq shoira .....	63
<b>Polanova N.M.</b> O‘zbek va ingliz tillarida qo‘shma so‘zlarning yasalishi, o‘xshash va farqli tomonlari .....	65
<b>Pulatova S.Sh.</b> Somerset Moemning “Oy va sariq chaqa” asarida bosh qahramonning san’at yo‘lidagi fidoiyligi tasviri .....	67
<b>Qo‘ziboyeva G.S.</b> Qadimgi turkiy tilda ko‘plik qo‘sishchalarining ifodalanishi .....	70
<b>Radjapova N.M., Jumaniyozova Sh.Z.</b> Muloqtdagi akt tiplari .....	72
<b>Rajabboyeva F.R., Bekchonova H.D.</b> Parameters of social linguistic research social linguistic research .....	74
<b>Rajabov A.U., Jalilova L.J.</b> The depiction of the teenagers’ social life in “Harry Potter” .....	77
<b>Rajabov A.U., Jalilova L.J.</b> The role of psychologism in the development of a literary genre .....	80
<b>Sabirova D.D., Sultanova D.A.</b> The concept of pronunciation style in modern linguistics .....	83
<b>Saparova M.R.</b> Xolid Husayniyning “Ming quyosh shu’lasi” (A thousand splendid suns) asarida qo‘llanilgan yuklamalarning o‘zbek va ingliz tillaridagi leksik-semantik va grammatic xususiyatlari .....	86
<b>Toshquvvatova M.A.</b> Art of the chapter dedicated to the heritage of Alisher Navoi in the epic "Khamsa" .....	88
<b>Turdiyeva G.A.</b> O‘zbek tilshunosligida his-hayajonni ifodalovchi til birliliklarning o‘rganilishi .....	91
<b>Tursunov M., Ubaydullayeva M.</b> Ingliz va o‘zbek tillarida mubolag‘aga asoslangan ba’zi bir frazeologik birliliklarning lingvokognitiv tahlili .....	93
<b>Xamidova T.R.</b> Chet til darslarida qishloq xo‘jaligi terminologiyalarning morfologik xususiyatlari .....	97
<b>Xudoyberganov Y.I., Xo‘jayeva Z.X., Qodirova X.B.</b> Fransuz tilidagi zoonim komponentli frazeologik birliliklarning strukturaviy tahlili .....	99
<b>Yakubova M.K.</b> Sociolinguistic significance of variability in language .....	102
<b>Yuldasheva F.E.</b> Expressions of linguistic politeness .....	103
<b>Абдуллаева Н.Н.</b> Пословица как жанр дискурса .....	105
<b>Абдурахмонов А.А.</b> Рангнинг насрый матнадаги ижодий foяни йўналтирувчи жиҳати .....	107
<b>Абидова А.</b> Инсон руҳий ҳолатини ифодаловчи сифатлар .....	109
<b>Авезова Г.С.</b> Ҳ.Дўстмуҳаммад “Бозор” романнда қаҳрамонларро муносабат .....	112
<b>Авлаева С.Б.</b> Неологизмларнинг пайдо бўлиш омиллари .....	114
<b>Аззамов Ю.Р.</b> Гастрономик дискурснинг лингвомаданий хусусиятлари (таржима аспектида) .....	116
<b>Алимов Т.А.</b> Абдулла Қодирийнинг ўткин кунлар романи таржимасида категоризация аспектининг ўзига хос хусусиятлари .....	121

b) Beriladigan xujjat, jarima kabilarni olmoq, masalan, 입학 원서를 받다. Oqishga kirganligi haqidagi xujjatni olmoq, 세금을 한다. Jarima olmoq.

d) Maqtov va baho olmoq, 교수님께 칭찬을 받았습니다. O'qituvchimdan maqtov eshitdim, 한국 영화가 호평을 받다. Koreys kinosi shuhrat qozondi.

e) Harakat, ruhiy ta'sirga yo'liqmoq, duch kelmoq, 집에서 귀염을 한다. Uyda erkatoj bo'lmoq, 벌을 한다. Jazo olmoq, 진료를 한다. Davolanmoq, 선생님께 기르침을 한다. Oqituvchidan ta'lim olmoq.

f) Baho va unvon kabilarga erishmoq, masalan, 수학 시험에서 100 점을 받았다. Matematika imtihonidan 100 ball oldim, 박사 학위를 받다. Fan doktori unvonini olmoq. 8. [동아 새국어 사전. –동아 출판사 1992년. 250쪽.]

**Olingen natijalar tahlili va xulosa.** Xulosa qilib aytganda, o'zbek va koreys tillarida ma'no ko'chish yo'llari o'xshashlik bilan birga bir qator farqlanishlarga ham ega ekan. Jumladan, o'zbek tilida ma'no ko'chishining metafora, metonimiya, vazifadoshlik va sinekdoxa singari turlari ajratilib o'rganilsa, koreys tilida ular bir nom ostida - polisemiya hodisisi nuqtai nazaridan tekshiriladi.

Umuman olganda, so'z ma'nosining ko'chishi murakkab va ko'p qirrali hodisa sanaladi. Ma'no ko'chishining yuqoridagi kabi turlari nutqimizning ta'sirchanligini oshirishda, ifodali, jozibali bo'lismida katta ahamiyatga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – М., 1987. 160-б.
2. Mиртоев М. О'zbek tilida polisemiya. Toshkent: Fan, 1975. 120-б.
3. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent: O'qituvchi, 1992. 220-б.
4. O'zbek tili leksikologiyasi. -Toshkent: Fan, 1980. 170-б
5. Tursunov U., Muxtorov A., Raxmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent: O'zbekiston, 1992. 230-б
6. 교사용 지도서 문법.–교육 인적 자원부, 2007년. 150-교.
7. 남기심 고용근. ‘표준 국어 문법론’.–서울. 1985. 180-교.
8. 동아 새국어 사전.–동아 출판사 1992년. 450-교.
9. 서정수. '국어 문법'.–서울. 한양 대학교 출판관 1996년. 160-교.
10. 한국어 문법 1. 체계편.–커뮤니케이션북스. 2006년. 507-교

UDK 808.5

#### EDGAR ALLAN PO HIKOYALARIDA RUHIY KASALLIKLAR

M.A. Baxronova, o'qituvchi, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti, Buxoro

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Amerika adabiyoti yorqin namoyondasi Edgar Allan Po hikoyalarida ruhiy kasalliklarning berilishi va ularning tahlili yuzasidan fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** roman, psixologik, xarakter, ijod, personaj, ijtimoiy-ma'naviy,ruhiy xastalik,epilepsiya,monomaniya

**Аннотация.** В данной статье рассматривается передача и анализ психических заболеваний в рассказах Э.А.По .

**Ключевые слова:** роман, психологический, персонаж, творчество, персонаж, социально-духовный, психические заболевания, эпилепсия

**Abstract.** This article focuses on the description and analysis of mental illnesses in Edgar Allan Poe's short stories

**Keywords:** novel, psychological, character, creativity, character, socio-spiritual,mental illness,epilepsy

Har bir millat madaniyatida kasallik nomlarini ifodalovchi qarashlar mavjud bo'lib ular shu xalq dunyoqarashini, dinini, urf-odatlarni, turmush tarzini va tarixini o'zida mujassamlashtiradi. Xususan, o'zbek va ingлиз xalqi amaliy nutqida rak,sil,vabo kabi xavfli kasalliklar nomi qadimda tabulashtirilgan,bunga tarixiy sabablar mavjud. Ruhiy kasallik atamasi ostida asab tizimlaridagi buzilishlar oqibatida paydo bo'luchchi, jamiyatda o'mashib qolgan me'yorlardan keskin chiquvchi hatti-harakatlarga olib keluvchi kasallik tushuniladi.

Edgar Allan Poning asarlari qorong'u mavzular, zo'ravonlik va psixologik jihatdan beqaror belgilari bilan mashhur. Edgar Alan Poning deyarli barcha hikoyalarida kasalliklar, ayniqsa ruhiyat bilan bog'liq kasalliklar, ruhiy buzilishlarni uchratish mumkin, bunga sabab esa yozuvchining murakkab hayat yo'li deya xulosa qilish mumkin, chunki uning tarjimai holini o'rganganimizda uning onasi va xotini sil kasalligidan vafot etgan bo'lsa, o'zi esa bir necha yillar davomida alkogolizmndan qutulolmagan,natijada umrining oxirida ko'chada behush holda topiladi va kasalkonaga yotqiziladi,bir necha kundan so'ng 40 yoshida sirli ravishda vafot etadi. Jumladan yozuvchining "Chaqimchi yurak" va "Qora mushuk" uning eng mashhur ikkita asari bo'lib, ikkalasida ham aqli raso bo'limgan hikoyachilar ishtirot etadi. "Chaqimchi yurak"da hikoyachi o'zi yashayotgan cholni bu odamning ko'zlarini bezovta qilgani uchun o'ldiradi. Majnunlik bu matnlardagi hikoyachilarning umumiyl xususiyatidir. Bu dramatik istehzo, chunki o'quvchilar hikoya qiluvchining aqldan ozgan va aqldan ozganligini bilishadi, lekin u buni bilmaydi.

It's true! Yes, I have been ill, very ill. But why do you say that I have lost control of my mind ,why do you say that i am mad? Can you not see that I have full control of my mind? Is it not clear that I am not mad?....I heard sounds from heaven, and I heard sounds from hell!

Bu haqiqat! Ha, men kasal bo'ldim, juda kasalman. Lekin nega aqlimni boshqara olmadim deysiz, nega aqldan ozganman deysiz? Men ongimni to'liq nazorat qila olganimni ko'rmayapsizmi? Men jinni emasligim aniq emasmi?....Jannatdan tovushlar eshitdim, do'zaxdan tovushlar eshitdim!

Hikoya bosh qahramoni jannat va do'zaxdag'i gaplarni eshitayotgan bo'lsa ham, jinni emasligini o'ziga-o'zi aytmoqda, bu esa uning aqliy sog'lom emasligini isbotlaydi."Chaqimchi yurak"da hikoyachi o'zi yashayotgan cholni bu odamning ko'zlarini bezovta qilgani uchun o'ldiradi. Xuddi shunday, "Qora mushuk" hikoyasi ham yozuvchining mashhur asarlaridan biri bo'lib,bunda ham hikoyachi o'z mushukini o'ldirmoqchi bo'ladı, lekin u hayvonni himoya qilmoqchi bo'lgan xotinini o'ldiradi va politsiya tergovidan yashirinish uchun xotinini devorga ko'mgan. Hikoyachi spirtli ichimliklarga qaram bo'lganida, ruhiy kasalliklar kuzatilishi mumkin.

Amerika adabiyotida ruhiy buzulishlar ko'pincha detektiv asarlarda, odatda, odam o'ldiruvchi ruhiy xasta (monyak) obrazi ko'p uchraydi. Jumladan,"Berenis" hikoyasida monomaniya kasaliga giriftor bo'lgan Egeus (Egaeus) ismli bemorning ayanchli hayoti tasvirlangan.Hikoya qahramoni Egeus o'qimishli yigit, amakivachchasi Berenis bilan katta,g'amgin qasrsa o'sadi. U ruhiy buzulishdan,monomaniyadan(Bir g'oyaga kuchli bog'lanish bilan tavsiflangan ruhiy kasallik ) aziyat chekadi. Bu epilepsiya bilan boshlangan va ko'pincha katalepsiya bilan tugaydigan g'alati kasalligi bor edi (o'liklarga o'xshash statsionar holatga tushadigan holat). Hikoyada bemor qiz quydagicha tasvirlanadi:

As time passed, their illnesses were growing. Berenice increasingly physically transmuted, took on a pale, thin and extremely long hair, while those trances Egeus suffered more frequent and lasting. Egeus proposes marriage to Berenice, and two are still in a deplorable condition.

Tarjimasi: Vaqt o'tishi bilan ularning kasalliklari kuchayib borardi. Berenis tobora jismonan o'zgarib bordi, rangpar, ingichka va juda uzun sochlarga ega bo'ldi. Egaeusda esa kasalligi tufayli ruhiy bezovtaliklar,tutqanoq tobora kuchayib borardi,u Berenisiga turmush qurishni taklif qiladi va ikkilasining ham sog'ligi ayanchli ahvolda edi.

"Berenis" hikoyasida yigit ruhiy buzulish holatida,o'zini bilmagan holda, qizni uning go'zal tishlari o'ziniki bo'lishini xoxlagani uchun qiz dafn etilgach uni qabridan kavlab olib tishlarini sug'urib oladi.Bir so'z bilan aytganda ,yigit o'zini kechayu kunduz bezovtalantirgan telbalarcha orzusini ro'yobga chiqarishga muvaffaq bo'ladı,ammo bu uzoqqa cho'zilmaydi,yigitning siri fosh bo'ladı,yigitning siri ochilishiga uning o'zini kasallarga xos tutishi sabab bo'ladı, ya'ni u qizning tishlarini sug'urib olishi uchun ishlatgan tibbiy asboblar qutisi qo'lidan tushib parchalanib ketadi hamda 32 ta oppoq tishlar har tomonga sochilib ketib siri fosh bo'ladı.

Adibning yana bir "M.Valdemar ishidagi faktlar" hikoyasida bosh qahramon bemorlarni gipnos qilish orqali tekshirmoqchi va ular bilan sinov o'tkazmoqchi bo'ladı.Bundan xabar topgan Valdemar o'zini sinab ko'rishni taklif qiladi. chunki u sil kasalligi bilan og'igan, ahvoli juda yomonligini,ertasi kuni kechgacha yetib bormasligini aytib gipnoz qilinishiga qattiq turib oladi. Bir nechta doktorlar va hamshiralalar kuzatuvi bilan hikoyachi Valdemarni gipnoz holatiga tushiradi va yetti oy davomida har kuni doimiy tekshirib turadi,ammo Valdemar tanasi sovib qolgan bo'lsada nafas olayotgan edi. Nihoyat, hikoyachi Valdemarni uyg'otishga urinib, qiyinchilik bilan javob beriladigan savollarni beradi, chunki uning tomog'i va tilidan ovozi chiqadi, lekin uning lablari va jag'lari o'lindan qotib qoladi. Trans va hushyorlik o'rtasida Valdemar hikoyachidan uni tezda uyquga qaytarishni yoki uni uyg'otishni so'raydi. Valdemar "O'lik! O'lik!" deya baqiradi. Hikoyachi uni qayta-qayta trans holatidan chiqarishga kirishadi, faqat uning butun vujudi shu zahotiyoyq "deyarli suyuq, jirkanch, chirigan massa"ga aylanadi.Ushbu asar Poning rafiqasi Virjinianing boshidan kechirganlari Valdemarning sil kasalligidan o'limiga va uning o'limini kechiktirishga urinishlariga ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. Bu hikoya chop etilganda u to'rt yil davomida sil kasalligi bilan og'igan. Virjinianing iztirobi Poning "M. Valdemar ishidagi faktlar" asaridagi g'ayrioddiy ta'rifiga ilhom bergen bo'lishi mumkin. Poga u ishtirot etgan esmeristik ma'ruzalarida Endryu Jekson Devis ham ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. Valdemarning o'limi esa Poning "Ligeia" va "Morella" kabi "yoqimli xonimning o'limi"ga bag'ishlangan boshqa asarlaridagidek emotsiyonal ruhda ko'rsatilmagan. Bu erkak figuraning o'limi esa shafqatsiz va dramatikdir.

Edgar Allan Po -qo'rqinchli fantastikaning otasi . U "Ligiya", "Asher uyining qulashi", "Qora mushuk" nomli uchta qissasida dahshat g'oyasini tiriklayin ko'milish yoki erta dafn etish, "Ruhiy buzulish yoki telbalik yoki ruhiy kasal", "g'ayritabiyy" ko'rinishida ifodalaydi. "Qora mushuk" hamda "Asher uyining qulashi" -ikkalasi ham tiriklayin dafn etilgan ayollarni tasvirlaydi, ya'ni ikkala hikoyada ham qotillar ruhiy kasal bo'lib, dahshatli manzarani tasvirlaydi. " Asherlar uyining qulashi" hikoyachisi Roderik Asherga egizak singlisini qabrga qo'yishda yordam bergen, "Usherlar uyining qulashi" filmining bosh qahramoni Roderik Asher nafaqat dahshat ichida yashaydi, balki ijtimoiy muloqotning barcha shakllariga qiziqishni ham yo'qtdi. Ligeia hikoyachining rafiqasi Ligiya vafot etib, hikoyachining yangi rafiqasi Ledi Rovenaga aylanganida g'ayritabiyylikni tasvirlaydi.

"Metzengerstein" o'zining birinchi bir nechta doktorlarda onaning zotiljam kasalligi oqibatida o'limi haqidagi satrni o'z ichiga oladi. Rivoyatchi shunday deydi: "Bu men borishni ibodat qilgan yo'l. Men hamma yaxshi ko'rganlarim o'sha dahshatlari kasallikdan halok bo'lishini istardim." Po hali bolaligidagi uning onasi Eliza Po zotiljam kasalligidan vafot etgan.Uning rafiqasi Virjinianha ham sil kasalligiga chalingan va 1847 yilda vafot etgan. Uning o'limidan so'ng Po kasal bo'lgan xayoliy qahramonlar haqidagi shaxsiy nuqtai nazarini o'zgartirib, kasal ayollarni o'limni orzu qilgan holda ideallashtirgan. Jon Keatsning "Bubulga qasd" asarida bo'lgani kabi o'limga nisbatan romantikroq ko'rinish yozuvda ham kam uchraydi, bu Poni ilhomlantirgan bo'lishi mumkin.

Demak badiiy adabiyotda kasalliklar,xususan ruhiy xastaliklar yozuvchilar tomonidan mahorat bilan ifodalangan,ayniqsa kasalliklar, ularning simptomlari,bemor belgilari aniq ochib berilganligiga guvoh bo'ldik. Badiiy adabiyotda ruhiy xastaliklarni ifodalashning esa turli sabablari, yozuvchining ruhiy holati,oilaviy va ijtimoiy muhitning ham ta'sirini ko'rishimiz mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://poestories.com/read/berenice>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kasallik>
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ruhiy\\_kasallik](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ruhiy_kasallik)
4. Edgar Allan Poe :storyteller, English Language Cultural devision Educational and Cultural Affairs United States Information Agency ,Washington,D.C.20547
5. Akhmedovna, B. M., & Shakhnoza, B. (2022). The Image of Disease in Edgar Allan Poe's "The Masque of the Red Death". Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2(1), 19-22.
6. Mizrabova, J.I., & Baxronova, M.A. (2021). In the work of william shakespeare's 'hamlet' the transfer of the names of the disease in different translations.//IEJRD-International Multidisciplinary Journal, 6, 95-98.
7. Bakhranova, M. A. (2020). Representation of disease names in the literature.//Theoretical & Applied Science, (6), 141-144.
8. Бахранова, М. А., & Тураева, М. З. (2019). Интерактивные методы обучения как средство формирования ключевых компетенций.//Ученый XXI века, 43.

UO'K: 1751.8

**SHAVKAT RAHMON IJODIDA “INSON” KONSEPTINING IFODALANISHI***M.R. Baxranova, magistrant, O'zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent**T. Yandasheva, PhD, O'zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada konsept tushunchasi, Shavkat Rahmon ijodida inson konseptining qo'llanilishi va o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Shavkat Rahmon ijodida insonning o'ziga xos jihatlari turli leksik vositalar yordamida ochib berilgan hamda tadqiq etilgan.

*Kalit so'zlar:* Shavkat Rahmon she'rlari, konsept, obraz, kognitiv adabiyot, inson, lingvokulturologiya.

*Аннотация.* В данной статье анализируется понятие понятия, применение и особенности понятия человека в творчестве Шавката Рахмона. В произведениях Шавката Рахмона особенности человека раскрываются и изучаются с помощью различных лексических средств.

**Ключевые слова:** стихи Шавката Рахмона, концепт, образ, познавательная литература, человек, лингвокультурология.

*Abstract.* This article analyzes the concept of the concept, the application and specific aspects of the concept of man in the work of Shavkat Rahmon. In the works of Shavkat Rahmon, the peculiarities of man are revealed and studied using various lexical means.

**Keywords:** Shavkat Rahmon's poems, concept, image, cognitive literature, man, linguoculturology.

Kirish. Mustaqillik yillarda milliy o'zligimizni anglash, xalq ma'naviyatini yuksaltirish o'zbek tilining qo'llanish doirasini kengaytirishga alohida e'tibor berildi. Xususan, Davlat tilining hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Natijada o'zbektilining so'z boyligi uning ifoda kengligi va ulkan xazina ekanligi yanada oydinlashdi. Tilimiz lug'at boyligi bilan dunyoda hech bir tildan qolishmaydi.

Mustaqillik davri o'zbek tilshunosligida antroposentrik paradigmasing shakllanishi psixolingvistika, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, kabi yo'nalishlar qatorida lingvokulturologiya masalalarini o'rganish, sohaning perdmeli va vazifalari metodlari va tushunchaviy-terminologik aparatini o'zlashtirish, til birliklarida madaniy jihatlarning aks etishi tomonlarini aniqlash, til varmadaniyat munosabatlari, til tizimidagi milliy o'ziga xos elementlar tadqiqiga bag'shlangan ishlar shakllanmoqda, lingvokulturologik tadqiqotlar yaratilmogda.

Konsept kognitiv lingvistikating markaziy tushunchasi hisoblanadi. Kognitiv adabiyotlarda konseptga falsafiy, psixologik, leksik kategoriya sifatida qaraladi. Kognitiv lingvistika, xususan, kognitiv semantika nuqtai nazaridan konseptning o'zi nima degan savol tug'iladi. Olimlar konseptga turlicha ta'rif berishadi. N.Tixonovaning fikricha: "Konsept grammatik kategoriya bo'lib, u o'zining formal ko'rsatkichlariga va shu kategoriya ichidagi differensial belgilariiga egadir" [1]. M.V.Nikitinning ta'kidlashicha esa: "Konsept sxolastik strukturaga ega bo'lgan diskret ko'pfaktori mental birlikdir" [2].

N.I.Jinkin ta'biri bilan aytganda: "Inson alohida gaplar vositasida emas, matn vositasida so'zlaydi" [3].

Konsept lingvokulturologiyada eng faol qo'llanuvchi birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Masalan, "Inson" konsepti ni qiyosiy jihatdan o'rganish bilan bog'liq. Kontseptlar inson ongida shakllanadigan ideal narsadir.

Shavkat Rahmon ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, shoir she'riyatida o'ziga xoslik, teran fikrlar va tuyg'uning botiniy harakatini ifodalash usul va vositalarini topish maqsadida kutilmagan majoziy obrazlardan, qiyoslardan foydalandi.

Shoir Shavkat Rahmon o'ziga xos o'tkir shoirona nigoh egasidir. U dunyoni nozik va original poetik obrazlar orqali idrok etadi. Uning lirik qahramoni ham fikrlovchi shaxs. U zamon haqida, istiqbol haqida, inson tabiatining ziddiyatlari haqida o'ylaydi. Insonni mukammal bo'limgan deb hisoblaydi insonda hali kamchiliklar ko'pligini o'z she'rlarida lirik qahramonlar vositasida ifodalaydi. Lirik qahramon xarakteri orqali biz shoirning dunyoga munosabati bilan tanishamiz, uning beorom o'ylari va ixtirobli dardlariga sherik bo'lamiz. Shoir insonni sevadi, lekin uni ideallashtirmaydi.. Shoir ixtirobli hayajon bilan, teran bir yurak dardi bilan insonning insonday bo'lishini istaydi, yaxshilik, ezzgulik, olijanoblik, mehr-muhabbat, shafqat va muruvvat g'alaba qozonishini qo'msaydi. Shoir bu tuyg'ularini ixcham, lekin mazmundor va ta'sirchan poetik obrazlarda mujassamlashtiradi. Masalan, uning "Farishtali" she'rini oladigan bo'lsak unda shoir inson konseptini mehr- muhabbat va insonning yaxshi-yu yomon

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ  
МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

**№6/3 (90)  
2022 й., июнь**

Ўзбекча матн мухаррири:

Рўзметов Дилшод

Русча матн мухаррири:

Ҳасанов Шодлик

Инглизча матн мухаррири:

Мадаминов Руслан, Ламерс Жон

Мусаҳҳих:

Ўрзобоев Абдулла

Техник мухаррир:

Шомуродов Журъат

“Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси” Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Хоразм вилоят бошқармасида рўйхатдан ўтган. Гувохнома № 13-023

Теришга берилди: 06.06.2022  
Босишга рухсат этилди: 14.06.2022.  
Қоғоз бичими: 60x84 1/8. Адади 70.  
Ҳажми 12,80 б.т. Буюртма: № 6-Т

Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими  
220900, Хива, Марказ-1  
Тел/факс: (0 362) 226-20-28  
E-mail: [mamun-axborotnoma@academy.uz](mailto:mamun-axborotnoma@academy.uz)  
[xma\\_axborotnomasi@mail.ru](mailto:xma_axborotnomasi@mail.ru)  
 (+998) 97-458-28-18